

SINXRON TARJIMON ETIKASI, AXLOQIY MAJBURIYATLARI VA MAXFIYLIK

 <https://doi.org/10.70728/tech.v3.i04.006>

Ismoilova Madina

Ilmiy rahbar: Xolboboyeva Aziza

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: ismoilovamadina20021@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinxron tarjimon faoliyatida professional etika va axloqiy majburiyatlarning tutgan o'rnini hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida sinxron tarjimonning kognitiv va kommunikativ xususiyatlari, xolislik, betaraflik va maxfiylik tamoyillarining xalqaro muloqot samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Maqolada L. Venutining "tarjimonning ko'rinmasligi" konsepsiyasi va G. Odilovaning ijtimoiy mas'uliyat borasidagi qarashlari sintez qilinib, tarjimadagi etik og'ishlarning fojiali oqibatlarini tarixiy misollar (Xrushchev nutqi, "Mokusatsu" voqeasi) yordamida asoslangan. Shuningdek, AIIC va FIT kabi xalqaro tashkilotlarning standartlari asosida professional rivojlanishning etik jihatlari muhokama qilingan. Yakunda tarjimonlar tayyorlash tizimiga etika modullarini kiritish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, tarjimon etikasi, maxfiylik, betaraflik, kasbiy mas'uliyat, xalqaro kommunikatsiya, L. Venuti, axloqiy dilemma.

Abstract: This article analyzes the role and significance of professional ethics and moral obligations in the activities of a simultaneous interpreter. The research highlights the cognitive and communicative characteristics of simultaneous interpretation, as well as the impact of principles such as objectivity, impartiality, and confidentiality on the effectiveness of international communication. By synthesizing L. Venuti's concept of "translator's invisibility" and G. Odilova's views on social responsibility, the article demonstrates the tragic consequences of ethical deviations in translation through historical examples (Khrushchev's speech, the "Mokusatsu" incident). Furthermore, the ethical aspects of professional development are discussed based on the standards of international organizations such as AIIC and FIT. The article concludes with practical recommendations for integrating ethical modules into the translator training system.

Keywords: simultaneous interpretation, translator ethics, confidentiality, impartiality, professional responsibility, international communication, L. Venuti, ethical dilemma

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение профессиональной этики и моральных обязательств в деятельности синхронного переводчика. В ходе исследования освещаются когнитивные и коммуникативные особенности синхронного перевода, а также влияние принципов объективности, нейтральности и конфиденциальности на эффективность международной

коммуникации. На основе синтеза концепции «невидимости переводчика» Л. Ветути и взглядов Г. Одиловой о социальной ответственности, с помощью исторических примеров (речь Хрущева, инцидент «Мокусацу») обосновываются трагические последствия этических отклонений в переводе. Также обсуждаются этические аспекты профессионального развития на основе стандартов международных организаций, таких как АПС и FIT. В завершение даны практические рекомендации по внедрению этических модулей в систему подготовки переводчиков.

Ключевые слова: синхронный перевод, этика переводчика, конфиденциальность, нейтральность, профессиональная ответственность, международная коммуникация, Л. Ветути, этическая дилемма.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida xalqaro aloqalarning kengayishi sinxron tarjimonga bo‘lgan talabni oshirdi. Sinxron tarjima – bu murakkab intellektual faoliyat bo‘lib, u nafaqat lingvistik bilimlar, balki chuqur professional etika va axloqiy tamoyillarga ham asoslanadi. Tarjimonlik faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat ikki til o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstlarni ham to‘g‘ri aks ettirishni talab etadi. Shu sababli, sinxron tarjimonning etikasi, uning axloqiy majburiyatlari va maxfiylikni ta‘minlash masalasi tadqiqotchilar va amaliyotchilar diqqat markazida turadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, sinxron tarjimondan bosimga chidamlilik, “multitasking” -ham eshitib, eshitgan am‘lumotlarini bir paytning o‘zida tahlil qilib xolis holda tinglovchiga to‘g‘ri va aniq yetkazib berish talab etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan etik dilemmalarni tahlil qilish, tarjimonning axloqiy majburiyatlarini tizimlashtirish va maxfiylik tamoyilining ahamiyatini yoritishdan iborat. Shuningdek, tarjima amaliyotidagi muayyan vaziyatlar misolida ushbu tamoyillarning qanday amalga oshirilishi ko‘rib chiqiladi. Muammo tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tarjimon etikasi masalasi qadim zamonlardan beri dolzarb bo‘lib kelgan. Qadimgi Rimda ham tarjimonlarga yuqori darajada ishonch bildirilgan va ularning xolisligi talab qilingan. XX asrda, xalqaro tashkilotlar faoliyatining kuchayishi bilan, sinxron tarjima rivojlandi va tarjimonlik etikasi bo‘yicha xalqaro standartlar ishlab chiqila boshlandi [Fedorov. 2002:416] Oldingi tadqiqotlar asosan til ko‘nikmalariga, tarjima texnikalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, ushbu ish tarjimonning professional va axloqiy jihatlariga chuqurroq yondashadi. Professional etikani bilish va unga rioya qilish sinxron tarjimonning nafaqat samarali, balki mas‘uliyatli faoliyatini ham ta‘minlaydi.

Shu o‘rinda, BMT da og‘zaki tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan James Nolanning “Og‘zaki tarjima: texnikalar va mashqlar” kitobida keltirib o‘tilgan tarjimonning umumiy qiyinchiliklaridan tashqari yana uchta eng ko‘p BMT og‘zaki tarjimonlaridan talab qilinadigan – siyosiy nutqning 100 foiz aniq tarjima qilinishi shartligi, yo‘qsa birgina noto‘g‘ri tarjima sababli siyosiy konfliktlar kelib chiqishi ehtimoli mavjudligi, bundan

tashqari, ba'zi bir nutqlar haddan tashqari uzun va turli mavzularni qamrab olishi (ekologik muommolardan tortib, inson huquqlarigacha cho'zilishi) tarjimon etikasining naqadar muhimligini, neologizmlar, jargonlar va siyosiy jarayonlardan ham xabardorlik mas'uliyatini tarjimon bo'yniga yuklaydi. [James N. 2005:191]

Shunday ekan, yuqoridagi talablardan kelib chiqib, tarjimon nafaqat lingvistik bilimlar egasi, balki axloqiy tamoyillarni ham chuqur tushunishi lozimligi anglashiladi. Ushbu maqola yordamida axloqiy tamoyillarni o'rganish muommosiga yechim topishga harakat qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1928-yilda VI Kommintern Kongressida ilk sinxron tajribasi [G'afurov, Mo'minov & Qambarov. 2012: 166] bo'lib o'tgandan beri oradan salkam bir asr vaqt o'tdi. Shu vaqt mobaynida globallashuv, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida tarjimaga bo'lgan talab nihoyatda yuqoriladi.

Shu bilan birga tarjimon qilgan tarjimasining sifatini nazorat qilish va prinsiplarga amal qilish zarurati ko'tarildi. Isroillik olim Gideon Toury 1970-yilda tarjimon normasi atamasini birinchi bo'lib fanga kiritdi va shundan beri bir qator ilmiy izlanishlar olib borib, shaxsan o'zi tomonidan tahrirlanadigan va John Benjamin tomonidan 1989-yildan boshlab ommaga e'lon qilinadigan "Target" xalqaro jurnalida ko'plab maqolalar aynan tarjimon axloqi, normalari mavzusida chop etilib kelindi. [Proshina. 2008:218]

Sinxron tarjimonlik faoliyatining axloqiy asosi ko'p yillar davomida "neytrallik" va "ko'rinmaslik" (invisibility) prinsiplari atrofida shakllangan. Xalqaro konferensiya tarjimonlari assotsiatsiyasi (AIIC) tomonidan belgilangan standartlarga ko'ra, tarjimon nafaqat so'zlarni, balki notiqning niyatini ham buzmasdan yetkazishi shart. Biroq, zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Frants Pöchhacker (2004), tarjimonning neytralligi mutloq tushuncha emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarjimon muloqot tizimidagi faol ishtirokchi bo'lib, u madaniyatlararo to'qnashuvlarni yumshatishda "axloqiy vositachi" vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu esa tarjimondan nafaqat til bilishni, balki vaziyatga qarab axloqiy qaror qabul qilish mahoratini ham talab etadi.

Sinxron tarjimonlar faoliyatida maxfiylik masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu masala ko'plab professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan etik kodekslarda ham aks etgan. Masalan, International Association of Conference Interpreters tomonidan ishlab chiqilgan etik kodeksda tarjimon ish jarayonida eshitgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Ushbu tamoyil ayniqsa diplomatik muzokaralar, xalqaro konferensiyalar va siyosiy uchrashuvlar jarayonida muhim hisoblanadi.

Shuningdek, International Federation of Translators tomonidan ishlab chiqilgan professional tamoyillarda ham tarjimonning halolligi, betarafligi va maxfiylikka rioya qilishi asosiy kasbiy majburiyat sifatida qayd etilgan. Mazkur tamoyillar tarjimon faoliyatida professional ishonchni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjimon etikasi sinxron tarjima jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar tomonidan

ilgari surilgan qarashlar tarjimon faoliyatida betaraflik, professional mas'uliyat hamda maxfiylik tamoyillari asosiy o'rin tutishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sinxron tarjima jarayonida tarjimon etikasi, axloqiy majburiyatlari hamda maxfiylik tamoyillarining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda sifat tahliliga asoslangan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sinxron tarjima faoliyatida tarjimonning professional etik me'yorlarga amal qilishi, kommunikativ jarayonda betaraflikni saqlashi hamda maxfiylik tamoyilining qanday shaklda namoyon bo'lishini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Shu sababli tadqiqot jarayonida, asosan, nazariy tahlil, pragmatik tahlil hamda diskursiv yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida tarjimon etikasi va sinxron tarjima faoliyatiga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, konferensiya tarjimonlari faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro professional kodekslar tanlab olindi. Jumladan, konferensiya tarjimonlarining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi International Association of Conference Interpreters etik kodeksi hamda tarjimonlar faoliyatiga oid umumiy professional tamoyillarni belgilab beruvchi International Federation of Translators hujjatlari tadqiqot materiali sifatida o'rganildi. Materiallarni tanlashda tarjimon faoliyatida muhim hisoblangan professional mas'uliyat, betaraflik, aniqlik hamda maxfiylik tamoyillarining aks etishi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo, nazariy tahlil usuli yordamida tarjimon etikasi masalasiga oid ilmiy adabiyotlar o'rganilib, turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar tizimlashtirildi. Ushbu usul tarjimon faoliyatida axloqiy me'yorlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid ilmiy yondashuvlarni aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, pragmatik tahlil usuli orqali sinxron tarjima jarayonida tarjimonning kommunikativ vaziyatga mos ravishda nutq mazmunini yetkazish jarayoni, uning nutqdagi betaraflikni saqlashdagi roli hamda axborotni to'g'ri va xolis tarzda uzatish mexanizmlari o'rganildi. Ushbu yondashuv tarjimon faoliyatining kommunikativ va funksional jihatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Diskurs tahlili usuli tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur yondashuv sinxron tarjima jarayonini til birliklari darajasida emas, balki kengroq kommunikativ kontekst doirasida o'rganishga imkon yaratdi. Natijada tarjimonning nutq jarayonidagi vositachilik roli, uning kommunikativ strategiyalari hamda etik me'yorlarga amal qilish xususiyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot yakunida to'plangan ma'lumotlar tizimlashtirildi va sinxron tarjimon faoliyatidagi eng muhim etik mezonlar (mas'uliyat, betaraflik, aniqlik va maxfiylik) alohida guruhlarga ajratib tahlil qilindi. Qo'llanilgan usullar tarjimon etikasini shunchaki nazariya emas, balki jonli muloqot jarayonidagi amaliy zaruriyat ekanligini ko'rsatib berishga xizmat qildi. Tadqiqotda xalqaro standartlarga (AIIC, FIT) tayanilgani sababli, olingan xulosalar jahon miqyosidagi professional tarjimonlik talablariga mos keladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinxron tarjima jarayonida tarjimon etikasi, axloqiy majburiyatlari hamda maxfiylik tamoyillari kommunikativ jarayonning samarali kechishida fundamental omil bo'lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, sinxron tarjimon faoliyatida etik me'yorlarga qat'iy rioya qilish nafaqat nutq mazmunining aslicha yetkazilishini kafolatlaydi, balki muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonch va professional hurmat muhitining shakllanishini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar va professional kodekslar tahlili shuni tasdiqladiki, betaraflik, aniqlik, professional mas'uliyat hamda maxfiylik tamoyillari sinxron tarjimon faoliyatidagi eng ustuvor kasbiy talablar hisoblanadi. Ayniqsa, tarjimonning nutq mazmunini subyektiv o'zgarishlarsiz yetkazishi hamda shaxsiy qarashlarini jarayonga aralashtirmasligi kommunikativ jarayonning xolisligi va obyektivligini ta'minlovchi hal qiluvchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sinxron tarjima jarayonida maxfiylik tamoyili alohida strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tarjimonlar ko'pincha yuqori darajadagi siyosiy, iqtisodiy yoki diplomatik ahamiyatga ega axborotlar oqimida faoliyat ko'rsatishlari sababli, mazkur ma'lumotlarning daxlsizligini saqlash professional etikaning markaziy qismi sifatida e'tirof etiladi. Maxfiylik tamoyiliga so'zsiz rioya qilish tarjimon faoliyatining ishonchliligini va uning xalqaro miqyosdagi nufuzini belgilovchi asosiy omildir.

Bundan tashqari, tahlillar sinxron tarjimonning nafaqat til o'giruvchi, balki muhim kommunikativ vositachi sifatidagi rolini ham tasdiqladi. Tarjimon shunchaki til birliklarini transfer qilmasdan, balki turli madaniy va diskursiv kontekstlar o'rtasida madaniyatlararo ko'prik vazifasini bajaradi. Shu sababli, professional etik me'yorlarga amal qilish xalqaro muloqotning barqaror, samarali va nizolarsiz kechishida muhim ijtimoiy-lingvistik ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sinxron tarjimon faoliyatida etik tamoyillar kommunikativ jarayonning ajralmas va tarkibiy qismi ekanligini isbotladi. Betaraflik, aniqlik, professional mas'uliyat hamda maxfiylik kabi mezonlar sinxron tarjima jarayonining sifatini va natijaviyligini ta'minlovchi asosiy pragmatik omillar sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topdi.

TADQIQOT MUHOKAMASI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sinxron tarjima faoliyati nafaqat yuksak kognitiv imkoniyatlarni (tezkor fikrlash, konsentratsiya), balki qat'iy axloqiy barqarorlikni talab etuvchi murakkab intellektual jarayondir. Biz o'rgangan United Nations (UN) va European Union (EU) tarjimonlik xizmatlarining etik kodekslari tarjimon zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatning naqadar global ekanligini tasdiqlaydi.

Ko'rinmaslik va Betaraflik: Nazariya va Amaliyot uyg'unligi hamda etik buzilishlar tahlili

Sinxron tarjima jarayonida obyektivlik va betaraflik tamoyillari Lawrence Venuti tomonidan ilgari surilgan "tarjimonning ko'rinmasligi" (translator's invisibility)

konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tarjima jarayoni shunchalik ravon va asliyatga yaqin bo‘lishi kerakki, natijada tarjimonning shaxsiy ishtiroki muloqot qatnashchilari uchun mutloq sezilmas darajaga yetishi lozim. Diplomatik muzokaralar va yuqori darajadagi konferensiyalarda tarjimonning bunday “g‘oyib bo‘lishi” nafaqat mahorat, balki eng muhim etik majburiyatdir. Biroq, ushbu muvozanatning buzilishi, ya’ni tarjimonning o‘z shaxsiy simpatiyalari, siyosiy qarashlari yoki hissiy munosabatini nutqqa aralashtirishi o‘nglab bo‘lmas kommunikativ inqirozlarga olib keladi. Agarda tarjimon notiqning tajovuzkor ohangini qasddan yumshatsa yoki aksincha, neytral gapni subyektiv ravishda keskinlashtirsa, u “vositachi” rolidani “manipulyator” roliga o‘tib qoladi. Bunday etik og‘ishlar muzokaralar ishtirokchilarining bir-birlariga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishiga, xalqaro bitimlarning mazmunan buzilishiga va hatto diplomatik mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tarjimonning "ko'rinmaslik" zonasidan chiqishi uning professional reputatsiyasini yakson qilish bilan bir qatorda, butun bir muloqot jarayonining obyektiv tabiatini yo‘qqa chiqaradi va xalqaro miqyosdagi o‘zaro tushunish platformasini barbod qiladi.

Maxfiylik – Ijtimoiy va Huquqiy Kafolat

Sinxron tarjima amaliyotida maxfiylik tamoyili G.K. Odilova tomonidan qayd etilgan tarjimonning ijtimoiy mas’uliyati tushunchasini yangi, strategik darajaga olib chiqadi. Tarjimon ko‘p hollarda yopiq eshiklar ortidagi diplomatik muzokaralar, transmilliy korporatsiyalarning tijorat sirlari yoki davlat ahamiyatiga molik maxfiy ma’lumotlar oqimida faoliyat ko‘rsatadi. Shu bois, maxfiylik tarjimon uchun shunchaki kasbiy odob-axloq qoidasi emas, balki muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi ishonchni ta’minlovchi fundamental huquqiy institutdir. Ushbu tamoyilning buzilishi tarjimonning professional faoliyatiga yakun yasovchi "kasbiy o‘lim" (professional suicide) sifatida baholanadi.

Maxfiylik majburiyatining e’tiborsiz qoldirilishi nafaqat tarjimonning AIIC kabi xalqaro professional tashkilotlar reytingidan chetlatilishiga, balki jiddiy huquqiy va moddiy javobgarlikka ham sabab bo‘ladi. Ko‘pgina xalqaro muzokaralarda tarjimonlar maxfiylik haqidagi shartnomalarni (Non-Disclosure Agreement - NDA) imzolaydilar, bu esa har qanday ma’lumot sizib chiqishi holatida tarjimonga nisbatan jinoiy ish ochilishi yoki yirik miqdordagi tovon pullari undirilishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Ijtimoiy miqyosda esa, maxfiylikning buzilishi diplomatik aloqalarning uzilishiga, davlatlararo ishonch inqiroziga yoki yirik iqtisodiy bitimlarning barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tarjimonning maxfiylikni saqlash qobiliyati uning nafaqat til mahoratini, balki kasbiy g‘ururi va ijtimoiy javobgarligini belgilovchi eng oliy mezondir.

Axloqiy dilemmalar va madaniy vositachilik

Sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar tarjimondan nozik muvozanat va yuksak diplomatik mahoratni talab qiladi. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, so‘zlovchi nutqida faktik xatolar, mantiqiy noaniqliklar yoki madaniy jihatdan bahsli

iboralar qo‘llanilgan vaziyatda tarjimon jiddiy tanlov qarshisida qoladi. Lawrence Venuti konsepsiyasi bo‘yicha tarjimon mutloq “ko‘rinmas” bo‘lib, hatto xatolarni ham boricha yetkazishi lozim bo‘lsa-da, G.K. Odilova ta‘kidlagan ijtimoiy mas‘uliyat tamoyili muloqotning umumiy samaradorligini saqlab qolishni taqazo etadi. Agar tarjimon notiqning madaniy kontekstga zid yoki qo‘pol xatosini tushuntirishsiz o‘girsas, bu muloqot ishtirokchilari o‘rtasida o‘nglab bo‘lmas tushunmovchilikka va jarayonning butunlay to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Tarjimadagi etik buzilishlar va semantik xatolarning naqadar fojiali oqibatlariga olib kelishi tarixiy tajribalarda o‘z aksini topgan. Xususan, 1956-yilda Nikita Xrushchevning nutqidagi iboraning so‘zma-so‘z “Biz sizlarni ko‘mib tashlaymiz” (*We will bury you*) deb o‘girilishi, aslida tizimlararo raqobat nazarda tutilgan bo‘lsa-da, G‘arb dunyosi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy tahdid sifatida qabul qilingan va "Sovuq urush" keskinligini yangi bosqichga olib chiqqan. Shuningdek, 1945-yildagi “Mokusatsu” so‘zining xato interpretatsiya qilinishi Yaponiya va AQSH o‘rtasidagi kommunikativ uzilishga hamda insoniyat tarixidagi eng yirik fojialardan biriga sabab bo‘lgani tarjimon zimmasidagi mas‘uliyat naqadar ulkan ekanligini isbotlaydi.

Bunday dilemmaning noto‘g‘ri hal qilinishi, ya‘ni tarjimonning o‘zbilmonlik bilan matnga subyektiv tuzatishlar kiritishi yoki muloqotni inqirozga boshlovchi lingvistik xatoni ko‘r-ko‘rona takrorlashi muloqotning obyektivligiga putur yetkazadi. Tarjimonning vositachilik roli aynan mana shu nuqtada namoyon bo‘ladi: u nutq mazmunini buzmaganda, zarur hollarda qisqa va neytral madaniy izohlar orqali ishtirokchilarni tushunmovchilik xavfidan himoya qilishi lozim. Ushbu muvozanatning buzilishi tarjimonning professional betarafligini shubha ostiga qo‘yadi va xalqaro muloqotning samaradorligini ta‘minlovchi axloqiy ko‘prikni barbod qiladi. Shu sababli, axloqiy dilemmalarni yechish qobiliyati sinxron tarjimonning nafaqat lingvistik malakasini, balki uning madaniyatlararo vositachi sifatidagi intellektual salohiyatini ham belgilovchi asosiy mezondir.

Professional rivojlanish – etikaning tarkibiy qismi

Tarjimon etikasi masalasida yana bir fundamental jihat — bu tarjimonning professional malakasi va to‘xtovsiz intellektual rivojlanishidir. Yuqori malakali tarjimon o‘z faoliyatini mas‘uliyat bilan bajarar ekan, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishni shunchaki karyera o‘shishi emas, balki etik majburiyat deb biladi. Xalqaro konferensiya tarjimonlari assotsiatsiyasi (AIIC) standartlariga ko‘ra, tarjimon o‘zi yetarli darajada tushunmagan sohada tarjima xizmatini ko‘rsatishdan bosh tortishi lozim. Bu sinxron tarjimonning o‘z imkoniyatlarini xolis baholashi va buyurtmachi oldidagi axloqiy halolligini anglatadi. Gap isboti bilan degandek, ushbu tamoyilning ahamiyatini tarixiy va zamonaviy misollar orqali ko‘rish mumkin. Masalan, 1972-yilda AQSH prezidenti Richard Niksonning Xitoyga tarixiy tashrifi chog‘ida tarjimonning diplomatik etiket va siyosiy kontekstni chuqur bilishi muloqot taqdirini hal qilgan. Aksincha, terminologik tayyorgarlikning yetishmasligi fojiali oqibatlariga sabab bo‘lishi mumkin. BMT (UN) doirasidagi muzokaralarda tarjimonning bitta noto‘g‘ri qo‘llangan huquqiy termini

(masalan, Falklend orollari mojarosidagi kabi) muzokaralarning butunlay to‘xtab qolishiga va tomonlar o‘rtasidagi keskinlikning asossiz ortishiga olib kelgani ma'lum. Bunday vaziyatlarda tarjimonning "bilmasligi" uni javobgarlikdan ozod etmaydi, aksincha, tayyorgarliksiz ishga qo‘l urgani uchun uning etik mas’uliyatsizligi sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy tarjimashunoslikdagi tadqiqotlar, xususan, **Yevropa Ittifoqi (EU)** tarjimonlik xizmati tahlillari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv charchoq tufayli 30 daqiqadan so‘ng tarjimada xatolar soni **30% ga** oshadi. Bu yerda jiddiy etik dilemma yuzaga keladi: professional tarjimon o‘z jismoniy va psixologik imkoniyatlarini xolis baholay olishi va sifatni saqlash uchun mikrofondan chiqish mas’uliyatini his qilishi lozim. Shuningdek, bugungi kunda masofaviy sinxron tarjima (RSI) platformalari bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmaslik yoki texnik savodxonlikning pastligi ham muloqotning uzilib qolishiga sabab bo‘lib, etik muammoni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, professional rivojlanish tarjimonga nafaqat til mahoratini, balki geopolitik hushyorlikni ham beradi. Diplomatik muzokaralarda "bahsli hududlar" yoki tarixiy atamalarni yanglish qo‘llash siyosiy inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkinligini inobatga olsak, doimiy o‘qib-izlanish — tarjimon reputatsiyasini saqlashning shaxsiy vositasi emas, balki xalqaro muloqot xavfsizligini ta’minlovchi asosiy etik kafolatdir. Holly Mikkelson va James Nolan kabi olimlarning tadqiqotlari ham tasdiqlaganidek, professional malakani oshirishdan to‘xtash — bu etik neytrallikni va aniqlikni yo‘qotishning boshlanishidir.

Shu nuqtai nazardan, konferensiya tarjimonlarining professional rivojlanishi nafaqat lingvistik bilimlarni, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarga oid tushunchalarni ham kengaytirishni nazarda tutadi. Professional malakani oshirishdan to‘xtash — bu etik neytrallikni va aniqlikni yo‘qotishning boshlanishidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eng tajribali tarjimonlar ham har bir tadbirdan avval kamida 10-15 soatlik maxsus tayyorgarlikdan o‘tadilar, bu esa ularning kasbiy vijdoni va buyurtmachiga bo‘lgan axloqiy sadoqatining namunasidir.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot sinxron tarjimon faoliyatida etik me’yorlar va axloqiy majburiyatlar shunchaki kasbiy tavsiyalar emas, balki xalqaro kommunikatsiyaning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlovchi fundamental tizim ekanligini ko‘rsatdi. Lawrence Venuti, G.K. Odilova kabi olimlarning nazariyalari hamda AIC va FIT kabi xalqaro tashkilotlarning standartlari tahlili asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, betaraflik va "ko‘rinmaslik" tamoyillari sinxron tarjimaning sifati va obyektivligini belgilovchi asosiy mezonlardir. Tarjimonning shaxsiy qarashlarini jilovlay olishi va matn mazmunini subyektiv o‘zgarishsiz yetkazishi muloqot ishtirokchilari o‘rtasida ishonch muhitini yaratadi. Tarixiy misollar (masalan, "Mokusatsu" voqeasi yoki Xrushchev nutqi bilan bog‘liq holatlar) shuni isbotlaydiki, hatto kichik bir etik og‘ish yoki semantik xato global miqyosdagi fojialar va diplomatik inqirozlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, maxfiylik tamoyili tarjimonning nafaqat axloqiy, balki huquqiy javobgarligini ham belgilaydi. Strategik axborotlar daxlsizligini saqlash tarjimonlik institutining nufuzini va xalqaro munosabatlarning maxfiylik rejimini himoya qiluvchi asosiy kafolatdir. Ushbu tamoyilning buzilishi tarjimon uchun professional faoliyatning yakunlanishi va huquqiy sanksiyalar bilan natijalanishi maqolada tizimli ravishda asoslandi.

Uchinchidan, professional rivojlanish etik mas'uliyatning tarkibiy qismi sifatida baholandi. Tarjimonning o'z bilimlarini doimiy yangilab borishi, yangi texnologiyalarga (RSI) moslashishi va kognitiv imkoniyatlarini xolis baholay olishi uning buyurtmachi oldidagi axloqiy sadoqatini anglatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida tarjimonlar tayyorlash o'quv dasturlariga "Professional tarjima etikasi" modulini alohida fan yoki maxsus kurs sifatida kiritish lozim.
2. Sinxron tarjimonlar uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida (masofaviy tarjima) maxfiylik va kiber-etika qoidalarini o'z ichiga olgan milliy yo'riqnomalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, etik tamoyillar sinxron tarjimaning ajralmas va tarkibiy qismi bo'lib, ular tili va madaniyati turlicha bo'lgan jamiyatlar o'rtasida xolis, samarali va tinchlikka asoslangan muloqotni ta'minlovchi ma'naviy-huquqiy ko'priklar vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. **AIIC Code of Professional Ethics.** – AIIC, 2019. – 12 p.
2. **Alimov V.V.** Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Librokom, 2013. – 240 b.
3. **G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N.** Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 214 b.
4. **Gilevich Yu.A.** Sinxron tarjima amaliyoti. – Minsk: Belaruskaya navuka, 2017. – 215 b.
5. **James Nolan.** Interpretation: techniques and exercises. – Great Britain: Cromwell Press Ltd, 2005. – 328 p.
6. **Latyshev L.K.** Tarjima nazariyasi: Lingvistik-didaktik yondashuv. – Moskva: Akademiya, 2008. – 288 b.
7. **Odilova G.K.** Tarjima nazariyasi (Mutaxassislikka kirish). - Toshkent: Mumtoz so'z, 2021. - 175 b.
8. **Proshina Z.** Theory of translation. – Vladivostok: Far Eastern University Press, 2008. – 276 p.
9. **Pym A.** Exploring Translation Theories. – London: Routledge, 2010. – 208 p.
10. **Seleskovitch D., Lederer M.** Interpreting for International Conferences. – Washington D.C.: Pen & Booth, 1995. – 320 p.

11. **Chernov G.V.** Teoriya i praktika sinxronnogo perevoda. – Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya, 2007. – 208 b.
12. **Shveitser A.D.** Teoriya perevoda: Status, problemy, aspekty. – Moskva: Nauka, 1988. – 215 b.
13. **Fedorov A.V.** Tarjima nazariyasi asoslari. – Sankt-Peterburg: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2002. – 416 b.